

O‘ZBEKISTONDA O‘QUVCHILARINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISGA QARATILGAN TAKLIFLAR

Maktab o‘quvchilarining moliyaviy savodxonligi ularning moliyaviy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, turli xil faoliyat, ya’ni o‘quv mashg‘ulotlari, oila a‘zolari va do‘stlari bilan munosabatlar, kunlik hayotiy ishlarni qilish jarayonida shakllanadi. Moliyaviy madaniyat esa, o‘z navbatida, jamiyat va shaxs madaniyatining bir qismi sifatida moliyaviy an‘analar, me‘yorlar, qoidalar, algoritmlar, oqilona moliyaviy xulq-atvorning eng yaxshi amaliyotlari, mas’uliyatli iste’mol qilish ko‘nikmalari, puldan samarali foydalanish va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlash, moliyaviy munosabatlar sohasidagi bilimlar, moliyaviy xizmatlar iste’molchilarining huquqlari, majburiyatlari va mas’uliyatlarining uyg‘unligidir. Yoshlarimizni moliyaviy savodxon va madaniyatli qilib tarbiyalashni maktabning ilk kunlaridanoq boshlash, ularni asta-sekinlik bilan kelajakda to‘g‘ri moliyaviy qarorlarni qabul qilishga tayyorlab borish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda hozirgi kunda 10 163 ta umumta’lim maktablari faoliyat yuritadi, ularda 6,5 mln.ga yaqin o‘quvchi tahsil oladi. Shundan boshlang‘ich sinf (1-4-sinf) o‘quvchilari 2,6 mln., o‘rta sinf (5-9-sinf) larda 2,9 mln., yuqori sinf (10-11-sinf) larda 843 ming atrofida o‘quvchilar o‘qishadi.¹ Davlatimiz kelajagi bo‘lgan bu bolalarni mustaqil va samarali moliyaviy qaror qabul qila oladigan, moliyaviy bilimlari asosida barqaror kelajagini yarata oladigan, moliyaviy mas’uliyat va javobgarlikni his qila oladigan, o‘zining moliyaviy xavfsizligini ta’minlay oladigan moliyaviy savodxon inson qilib tarbiyalash mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga egadir.

O‘quvchi yoshlarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirish, moliyaviy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida yurtimiz maktablarida o‘qitilayotgan 8 va 9- sinflar uchun “Iqtisodiy bilim asoslari”, 11-sinflar uchun “Tadbirkorlik asoslari” fanlaridan o‘quv adabiyotlarning o‘z o‘rni bor. Ammo jahon iqtisodiyotida va shu bilan birgalikda mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jadal o‘zgarishlar

¹ <https://www.uzedu.uz/uz/page/statistics>

maktablarda berilayotgan moliyaviy bilimlarni davr bilan hamnafas ravishda yangilab, rivojlantirib borishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiy va moliyaviy ta'lim bo'yicha asosiy e'tibor yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy tushunchalarni bilishga yo'naltirilgan, ammo mas'uliyatli to'g'ri moliyaviy qarorlar qabul qilish, shaxsiy moliyaviy rejalashtirish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga juda kam e'tibor qaratilmoqda. Maktablarda boshlang'ich sinflardan oq moliyaviy-iqtisodiy tushunchalarni o'rgatish va zarur ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan maxsus dastur ishlab chiqilmagan.

Moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlardagi maktablarning moliyaviy ta'lim dasturlariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda pul va uni jamg'arish, rejalashtirish va oqilona xarajatlar, qarzni boshqarish, kredit va omonatlardan to'g'ri foydalanish, inflyatsiya, foiz stavkalarini hisoblash, investitsiya va u orqali daromadlarni oshirish, soliqlar, sug'urtadan foydalanish, risklarni tushunish va diversifikatsiyalash, moliyaviy xavfsizlik va moliyaviy firibgarlikdan himoyalash bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Bundan tashqari bukmekerlik faoliyati, totalizatorlik o'yinlari va moliyaviy piramidalar kabi turli nomlar bilan ommalashgan qimor jarayonlaridan jiddiy ijtimoiy salbiy oqibatlarini sabab o'ta ehtiyot bo'lish davr talabi bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlatimiz umumta'lim maktablari dasturlarini yuqoridagi mavzular bilan boyitib, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan topshiriqlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv rejasiga alohida moliyaviy savodxonlik bo'yicha fan kiritish ularning o'quv yuklamasini og'irlashtirib qo'yishi mumkin. Shu sababli, moliyaviy savodxonlik bo'yicha ilk bilimlarni boshqa fanlarga integratsiyalashtirgan holda berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda bu jarayonni qisman kuzatishimiz mumkin, masalan, matematika kitoblarida ma'lum miqdordagi pulga qancha mahsulot sotib olish mumkin qabilidagi masala va topshiriqlarni ko'rishimiz mumkin, 3-sinf o'quvchilarining

“Tarbiya” fanidan darsligida “Orzular maqsadlar sari yetaklaydi” bobida iqtisodiy topshiriq berilgan, unda mahsulotni narxlash, sotish, pulni sarflash, bankdan foydalanish ko‘nikmalari talab qilinadi. Ammo topshiriqdan avval o‘quvchilarga pul, banklar, daromad va xarajatlar, mahsulot narxi haqida bilim berish kerak. Ya’ni integratsiyalashuv jarayonini tizimlashtirish lozim.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika, ingliz tili, tarbiya, tasviriy san’at, texnologiya, musiqa kabi fanlar o‘qitiladi. Fikrimizcha, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun shulardan bir nechtasiga moliya va iqtisod bilan bo‘g‘liq mavzu va elementlarni kiritish mumkin. Misol uchun, ingliz va yoki rus tilini o‘qitish jarayonida ba’zi moliyaviy atamalar (pul, narx, ish haqi, daromad, xarajat, omonat, bank va h.)ning lug‘aviy tarjimasi va qo‘llanilishini hayotiy misollar va rasmlar yordamida o‘rgatib ketish, o‘qish savodxonligi darslarida pul va boshqa moliyaviy resurslarni cheklanganligi, ularni tejab ishlatish, shaxsiy pullarni samarali sarflash va jamg‘ara olishning muhimligini qisqa hikoya va ertaklar yordamida singdirish, tarbiya darslarida esa moliyaviy mas’uliyatni, ya’ni, masalan, qarz munosabatlaridagi mas’uliyat, pulni ehtiyojga ko‘ra sarflashdagi mas’uliyatni tushuntirib berish, matematika darslarida shu yo‘nalishdagi hisob-kitobga asoslangan masalalarni ko‘proq ishlatib, moliyaviy savodxonlikka oid dastlabki bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish mumkin. Bu jarayonni yanada qiziqarli qilish uchun turli moliyaviy o‘yinlardan, rangli markerlar bilan qalamlardan, yaltiroq yoki kulgili belgilar, shuningdek turli xil stikerlardan foydalansa bo‘ladi.

Masalan, o‘quvchiga improvizatsiya qilingan vaziyatni ko‘rsatish mumkin, u ota-onasi bergan har xil miqdordagi cho‘ntak pulini 1 kun uchun qanday taqsimlaydi. Avvaliga unga o‘yinda to‘liq erkinlik berib, so‘ngra asta-sekin uning "moliyaviy strategiyasini" yaxshilashni o‘rgatishni boshlash: bir muncha vaqt pul sarflamaslikni va kerakli o‘yinchoq yoki o‘quv quroli uchun pul tejashni taklif qilish va bank analogi sifatida bu jarayonga ota-onalarni jalb qilgan holda tejalgan pullarni otasiga bersa, bir oz muddatdan so‘ng ko‘proq pulni qaytishini tushuntirish mumkin.

Umuman olganda, boshlang‘ich, ya’ni 1-4 sinf o‘quvchilari uchun moliyaviy savodxonlikning dastlabki mavzulari sifatida quyidagilarni ko‘rib chiqsak bo‘ladi:

1. Pul mablag‘lari va jamg‘arish asoslari. Bu mavzuni bolalarga o‘rgatishdan maqsad ularga pul nima ekanligi va uning hayotdagi o‘rni haqida tushuncha berish, pul kupyuralarini farqlashni o‘rgatish, kerakli va keraksiz xarajatlar o‘rtasidagi farqni tushuntirish, cho‘ntak pullari asosida jamg‘arish, sarflash bo‘yicha oddiy vaziyatli topshiriqlarni bajarish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

2. Moliyaviy tarbiya asoslari mavzusini “Tarbiya” fani dasturiga kiritish orqali 7-10 yoshli bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ertak va qisqa hikoyalardan foydalanib, moliyaviy munosabatlarda rostgo‘ylik va mas‘uliyat tushunchalarini muhokama qilish, mas‘uliyatli xarid va iste‘mol tushunchasiga kirish mumkin.

Boshlang‘ich maktabda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish insonning shakllanish yo‘lidagi muhim bosqichdir. Ammo uning asoslarini o‘rganish inson hayoti davomida unga hamroh bo‘lishi kerak.

Agar boshlang‘ich sinflar uchun moliyaviy savodxonlik asoslari ertaklar va o‘yinlar tamoyiliga asoslangan bo‘lsa, unda o‘rta sinflarda yondashuv murakkablashadi. Shu paytdan boshlab bolalar ko‘proq mustaqillikka ega bo‘ladi, shu jumladan, pul masalalarida.

5-9 sinflarda moliyaviy savodxonlikni oshirish alohida bir dastur kiritish va yoki boshqa fanlarga integratsiya qilgan holda amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi kunda moliyaviy bilimlarni “Iqtisodiy bilim asoslari”, qisman “Konstitutsion huquq asoslari”, “Matematika” fanlari bilan uyg‘unlashgan holda o‘rganish mumkin. Jumladan, 8-9 sinflarda o‘qitiladigan “Iqtisodiy bilim asoslari” dasturiga iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda davlat byudjeti va soliq tizimi, oila byudjeti, daromad va xarajatlari, korxonalarning mablag‘lari, daromad va xarajatlari, bank operatsiyalari kabi moliya bilan bog‘liq mavzular kiritilgan. 9-sinfda o‘qitiladigan “Konstitutsiyaviy huquq asoslari” fani darsligida 30-mavzu “O‘zbekiston Respublikasida moliya va kredit” deb nomlanib, moliya va kredit tizimining huquqiy asoslari tushuntirilgan. “Matematika” darslarida savdo va foizlar bo‘yicha masalalar ishlatiladi. Shunga qaramay, berilayotgan ushbu moliyaviy bilimlar yetarli darajada

emas deb hisoblaymiz va uni boyitish uchun quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

Ularda fanlararo integratsiyalashuvdan tashqari hozirgi kunda o'qitilayotgan "Iqtisodiy bilim asoslari" faniga qo'shimcha mavzular kiritish orqali o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni oshirish mumkin:

1. Shaxsiy byudjetni rejalashtirish. Shaxsiy byudjetni tuzish va boshqarish bo'yicha ko'nikmalar hosil qilish maqsadida bir oila yoki o'quvchilar hayotida xarajatlar va daromadlar misollari tahlili bo'yicha topshiriqlar berib, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni hisobga olgan holda shaxsiy buxgalteriya hisobini yaratish, daromad olish manbalarini aniqlash, jamg'arish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.

2. Bank va bank xizmatlari bilan tanishish. Banklar qanday ishlashini va aholi pullarini (omonatlarini) boshqarishni tushuntirish, buning uchun banklarning vazifalari, hisobraqam ochish usullari va bank hisobraqamlari pulni xavfsiz saqlashga va foiz topishga qanday yordam berishini muhokama qilish. Kreditlar va qarz mablag'lari tushunchasini tushuntirish, kreditlash asoslarini, shu jumladan foiz stavkalari, kredit shartlari va qarzga olingan mablag'lar turlari (masalan, iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari) haqida so'z yuritish. Kechiktirilayotgan to'lovlarning xavf-xatarlari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Bundan tashqari jahonda an'anaviy moliyaga muqobil ravishda taklif etilayotgan moliyaviy tizimlar haqida tushunchalar ham berish mumkin.

3. Investitsiya asoslari. Bu mavzuni o'rgatishdan maqsad investitsiyalarning kapital ko'payishi va moliyaviy salohiyatni oshirishdagi rolini tushuntirishdan va moliya bozori, uning ishtirokchilari va instrumentlari bilan tanishtirishdan iborat. Buning uchun investitsiyalarning asosiy turlari, jumladan, foizlar, moliyaviy instrumentlar, omonatlar bilan tanishtirish, turli xil investitsiyaviy strategiyalarni maqsad va risk darajasiga qarab muhokama qilish, o'qituvchi turli xil investitsiya qarorlarining oqibatlarini namoyish qilish uchun o'yinlar yoki tadqiqotlardan foydalanishi mumkin. Natijada o'quvchi investitsiyalarning asosiy qoidasini o'rganadi: daromadlilik qanchalik yuqori bo'lsa, risk ham shunchalik

yuqori bo‘ladi; turli xil investitsiya mahsulotlarining rentabelligini taqqoslay oladi; pul bir joyda turmasligi, ishlashi kerakligini biladi.

Matematika darslarida omonatlar va kreditlarning joriy va kelgusi qiymatlarini, to‘lov muddatini, foiz stavkalarini oddiy va murakkab foiz hisoblash asosida aniqlash kabi topshiriqlarni ko‘proq bajarish mumkin.

O‘rta sinflar (5-9 sinflar)da o‘quvchilarga daromad va xarajatlarni hisobga olish endi o‘qituvchining yordamisiz amalga oshirilishini tushuntirish mumkin, o‘qituvchi bunda tajribali "moliyaviy maslahatchi" sifatida maslahat berishi mumkin. Bu davrda o‘quvchi o‘z moliyasini saqlash va tasarruf etish uchun javobgarlikdan tashqari, noto‘g‘ri moliyaviy qarorlar uchun javobgar bo‘lishini ham o‘rganishi kerak. Shuningdek, aksiya, obligatsiya, veksel, omonat kabi moliyaviy instrumentlarni farqlash va ular bilan bog‘liq risk, daromadlilik, likvidlik xususiyatlarini tushunishi kerak.

Bundan tashqari, 7-8-sinflardan boshlab, o‘qituvchi oddiy bank operatsiyalarini o‘rgatish uchun, bolalarni bankka ko‘chma mashg‘ulot uchun olib borishi mumkin. U erda o‘quvchiga bank kartasini hech kimga bermaslikka, PIN-kodni ko‘rsatmaslikka va turli xil notanish internet saytlari va platformalariga plastik karta ma’lumotlarini kiritmaslik kabi moliyaviy qalloblikdan ehtiyot bo‘lishga, bank xodimiga maksimal aniqlik kiritadigan savollarni berishga o‘rgatish, va shuningdek, amalda bank muassasasi yordamida "orzu" uchun qanday qilib pul jamg‘arish imkoniyatini ko‘rsatish mumkin.

10-11-sinf o‘quvchilari kichik sinf o‘quvchilariga nisbatan qiziqish doirasi keng, mustaqil va o‘z maqsadiga ega, kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lishlari, qaysi sohada ishlashlarini deyarli belgilab olgan va o‘zlarining orzulari tomon dadil qadam tashlaydigan yoshlardir. Aynan shu davrda moliyaviy bilimning yetishmasligi real va virtual olamdagi yot g‘oyalar, onlayn totalizatorlik o‘yinlari ta’siriga tushib qolish, moliyaviy piramidalarga aldanib qolish xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, kichik sinflarda olingan moliyaviy bilimlarni ushbu davrda amaliy mustahkamlab, yanada chuqurlashtirish va boyitish muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz maktablarining 10-11-sinflarida o‘tiladigan fanlarning iqtisod

bilan bog‘liq mavzularini tahlil qiladigan bo‘lsak, tadbirkorlikka urg‘u berilganini ko‘rishimiz mumkin. “Tadbirkorlik asoslari” fani, “Tarbiya” fanida “Iste’mol va tadbirkorlik madaniyati” mavzusi bunga yaqqol misoldir. Shu bilan bir qatorda, 10-sinflar uchun “Matematika” darsligining II bobi “Moliyaviy matematika elementlari” deb nomlanib, unda kredit munosabatlarida oddiy va murakkab foizlarning qo‘llanilishiga doir tushuntirishlar va topshiriqlar keltirilgan. 11-sinf “Davlat huquq asoslari” III bo‘limi “Moliya huquqi”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekistonda moliya-kredit tizimi, moliyaviy-huquqiy munosabatlar, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va byudjet huquqi, davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish, davlat kreditining huquqiy asoslari yoritib berilgan.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda, bizning fikrimizcha, quyidagi yo‘nalishdagi bilim va ko‘nikmalarni bitiruvchi sinf o‘quvchilarida shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- Moliya bozorlari yo‘nalishidagi bilim va ko‘nikmalar. Fond bozori va undan daromadlarni oshirish uchun qanday foydalanish kerak, fond bozorida fuqarolar qanday ishtirok etishlari mumkin, fond bozori instrumentlari bilan bog‘liq risklar; Valyuta bozori, valyuta kurslari qanday hisoblanadi va unga ta’sir qiluvchi omillar qaysilar, valyuta konvertatsiyasi, valyuta kursining o‘zgarishini tadbirkorlik faoliyati natijalariga, aholi xarajatlariga ta’siri, milliy valyuta barqarorligi tushunchasi;

- Sug‘urta yo‘nalishidagi bilim va ko‘nikmalar. Muammoga duch kelmaslik uchun nimani va qanday sug‘urta qilish kerak, mamlakatimiz sug‘urta bozori haqida qisqacha ma’lumot, olingan mulkni qanday sug‘urtalash mumkin, salomatlik va hayot kabi bebaho ne’matlarni sug‘urtalashda hayot va tibbiy sug‘urta turlaridan foydalanish, uchinchi shaxslar oldida javobgarlikni sug‘urtalash, biznes risklarini sug‘urtalash va sug‘urta tashkilotini tanlash;

- Pensiya ta’minoti bilan bog‘liq bilim va ko‘nikmalar. Mamlakatimiz pensiya tizimi, davlat pensiya va nafaqalari turlari, jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi, yoshlik davridan keksalikni moliyaviy ta’minlash uchun nimalar qilish kerak

- Moliyaviy risklar va ularni boshqarish. Shaxsiy hayotda va tadbirkorlik faoliyatida qanday moliyaviy risklar yuzaga kelishi mumkin, ularni qanday aniqlash va boshqarish mumkin, diversifikatsiya nima va risklarni boshqarishdagi ahamiyati;

- Moliyaviy firibgarliklar va ularni qanday qilib aniqlash va qurbon bo‘lmaslik kerak, moliyaviy piramida, yoki qanday qilib firibgarlar tarmog‘iga kirmaslik kerak, virtual tuzoqlar, yoki Internetda ishlashda qanday qilib pul yo‘qotmaslik kerak, bukmekerlik va totalizatorlik o‘yinlari nima va ularning yoshlar uchun ayanchli oqibatlari.

Bundan tashqari, maktab o'quvchilari o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun darslarda olingan bilimlarni chuqurlashtirishga va moliya sohasida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan turli xil darsdan tashqari tadbirlarni o'tkazish taklif etiladi. Ushbu tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

Maktablarda moliyaviy savodxonlik to‘garagini tashkil etish. To‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar har oyda ikki marta yig‘ilib, turli xil moliyaviy mavzularni muhokama qilishlari, muammoli vaziyatlarni hal qilishlari, munozaralar olib borishlari va hayotiy misollar orqali moliyaviy ko‘nikmalar egallashlari mumkin.

Moliya sohasining yetuk mutaxassislarini taklif etib, ular bilan hamkorlikda mahorat darslari o‘tkazish. Bunday darslarni maktab doirasida ham, oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ham tashkil etilishi mumkin. Mahorat darslarini bir oyda bir marta 8-11 sinf o'quvchilari uchun tashkil qilish mumkin. Mahorat darslari mutaxassislarning kasbiy faoliyati va tajribasidan kelib chiqqan holda turli moliyaviy mavzularda bo‘lishi mumkin:

- Bank va sug'urta faoliyati bilan bog'liq mahorat darslari;
- Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq mahorat darslari
- Blockchain, kripto-valyutalar, mobil to'lovlar kabi moliyaviy sohadagi zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq mahorat darslari.

Banklar, investitsiya kompaniyalari, sug'urta tashkilotlari va boshqa moliya tashkilotlari mutaxassislarini oyiga bir marta 8-11 sinf o'quvchilari uchun ma'ruzalar va seminarlar o'tkazishga taklif qilish.

- Bank mutaxassislari va professional investorlarning motivatsion ma'ruzalari: bank vakillari o'zlarining ishlari, banklarning moliyaviy mahsulotlari va operatsiyalari haqida ma'ruza qiladilar, professional investorlar o'z tajribalari bilan bo'lishadilar va investitsiya asoslari haqida gapirib beradilar.

Har oyda bir marta 8-11 sinf o'quvchilari uchun moliyaviy savodxonlikning turli jihatlarini bo'yicha o'quv seminarlarini o'tkazish. Bunda moliyaviy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish uchun turli xil vaziyatli masalalar, keyslar, muammolarni hal qilish, shaxsiy moliyaviy rejalar, biznes-rejalar tuzishni o'rganishni yo'lga qo'yish mumkin.

Musobaqalar va olimpiadalar: testlar, amaliy topshiriqlar, keyslar yechishni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan moliyaviy savodxonlik bo'yicha sinflar kesimida maktab va maktablararo olimpiadalarni tashkil etish. Bu amaliyot jahonning ko'plab mamlakatlarida qo'llaniladi. Masalan, Hindistonda 2023 yilda 6-12 sinflar o'rtasida o'tkazilgan Milliy moliyaviy olimpiadada 5 000 dan ortiq maktab o'quvchilari ishtirok etishdi. Olimpiada 2 bosqichda maktab va milliy bosqichda o'tkaziladi. AQShda turli xil davlat tashkilotlari maktab o'quvchilari o'rtasida iqtisodiy va moliyaviy olimpiadalar tashkil etadilar. Misol uchun, AQSh Federal rezerv tizimi tomonidan virtual o'tkaziladigan iqtisodiy olimpiada dinamik musobaqa bo'lib, yuqori maktab o'quvchilarini iqtisodchi sifatida harakat qilish va fikrlashga yetaklaydi. Har yili FRT tanlov mavzusini tanlaydi va har bir jamoa ushbu mavzu bo'yicha 1500-2500 so'zdan iborat esse yozadi. Insholar tanloviga kiritilgan eng yaxshi asarlar Nyu-York federal rezerv banki tomonidan Future Economists jurnalida chop etish uchun tanlanadi. Ishtirokchilar iqtisodiy ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlar tuzish va o'z xulosalarini ekspert hakamlar hay'atiga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladilar (Manba: <https://www.newyorkfed.org/outreach-and-education/high-school/high-school-fed-challenge>).

AQSh Iqtisodiy ta'lim Kengashi tomonidan tashkil etiladigan National Economics Challenge yuqori maktab o'quvchilarini Mikroiqtisodiyot, Makroiqtisodiyot va hozirgi kundagi dolzarb mavzularda sinovdan o'tkazadigan yetakchi musobaqadir. O'quvchilar avval mahalliy darajada sinovdan o'tadilar. Eng yaxshi sakkizta jamoa Nyu-Yorkda bo'lib o'tadigan milliy final musobaqasida ishtirok etadilar. G'olib jamoalar pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar. NEC akademik yutuqlarni rag'batlantiradi va jamoaviy ish va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. (Manba: <https://www.councilforeconed.org/programs/for-students/national-economic-challenge>)

Iqtisodiy ta'lim Kengashi tomonidan tashkil etiladigan yana bir tanlov-shaxsiy moliya bo'yicha milliy tanlov yuqori maktab o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan. Tanlov shtatlar bo'yicha bir oz farq qilsa-da, umumiy asos ishtirokchilar shaxsiy moliya, jumladan, byudjetlashtirish, jamg'arma, investitsiya va moliyaviy rejalashtirish bilan bog'liq haqiqiy muammolarni hal qilishiga qaratilgan. Kuboklar, medallar, pul mukofotlari va milliy miqyosda raqobatlashish imkoniyati ushbu musobaqani iqtisodiyot va shaxsiy moliya masalalariga qiziquvchilar uchun ajoyib imkoniyatga aylantiradi.

Xalqaro iqtisodiy Olimpiada - har yili butun dunyo bo'ylab yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan iqtisodiyot va moliya bo'yicha musobaqa. Olimpiada 2007 yilgi Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Erik Maskin tomonidan qo'llab-quvvatlanadi. O'quvchilar quyidagi uchta tanlovdan birida ishtirok etishni tanlashlari mumkin: moliyaviy savodxonlik (ishtirokchilar shaxsiy moliyaviy rejalarni tuzishlari kerak bo'lgan onlayn simulyatsiya o'yini), iqtisodiyot (ochiq savollar va ko'p tanlovli test savollarning kombinatsiyasi) yoki biznes-keysar (hakamlar hay'atiga biznes- keysar yechimini taqdim etish).

Qimmatli qog'ozlar sanoati va moliya bozorlari assotsiatsiyasi (SIFMA) tomonidan tashkil etiladigan Fond bozorida o'ynash musobaqasi o'quvchilar uchun haqiqiy pul yo'qotish xavfisiz moliya bozorlariga qo'shilishning ajoyib usuli hisoblanadi. Ushbu umummilliy musobaqa haqiqiy savdo stsenariylariga taqlid qilib, ishtirokchilarga xavf-xatarsiz muhitda strategik investitsiya qarorlarini qabul

qilish imkonini beradi. O'yin o'quv jarayoniga kirib, iqtisodiy nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni kamaytiradi. U 4-12-sinf o'quvchilarini iqtisodiyot, investitsiya va shaxsiy moliya dunyosiga jalb qiladigan va 20 millionga yaqin o'quvchilarni moliyaviy jihatdan mustaqil kelajakka tayyorlagan global kapital bozorlarining onlayn simulyatori hisoblanadi (Manba: <https://www.stockmarketgame.org>)

Buyuk Britaniyada KPMG UK va Financial Times schools tashkilotlari homiyligida har yili Qirollik iqtisodiy jamiyatining "Yilning yosh iqtisodchisi" tanlovi 10-13-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi. Ushbu tanlov o'quvchilarni Buyuk Britaniya va dunyo oldida turgan zamonaviy iqtisodiy muammolarni tahlil qilishda o'z g'oyalarini ilgari surishga undashga qaratilgan. Yilning yosh iqtisodchisi-2024 tanlovida ishtirok etish uchun o'quvchilar quyidagi ro'yxatdan mavzulardan birini tanlashlari va shu mavzu yuzasidan yozma yoki media (taqdimot yoki videorolik) shaklida g'oyalarini bayon qilishlari mumkin:

- Sizningcha, hukumat elektr transport vositalarini sotib olishni subsidiyalashi kerakmi?
- O'sib borayotgan kontsert iqtisodiyotining iqtisodiy ta'siri qanday?
- Barcha odamlar uchun bir martalik yashash minimumini to'lashning ijobiy va salbiy iqtisodiy argumentlari qanday?
- Pandemiya keyin mehnat bozorida qanday uzoq muddatli o'zgarishlarni kutish mumkin?
- Hukumat sog'liq uchun zararli bo'lgan tovarlarga soliq solishi kerakmi?

Tanlovda g'olib bo'lgan ishlar Financial Times jurnalida chop etiladi. (Manba: <https://www.discovereconomics.co.uk/young-economist-of-the-year-competition>)

Iqtisodiy Olimpiada (EO) ko'plab mamlakatlarda iqtisodiy ta'lim va moliyaviy savodxonlik darajasini oshiradigan samarali loyihadir. U 2016 yilda Chexiya Respublikasidagi iqtisodiy ta'lim instituti (INEV) tomonidan maktablarda iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'qitishdagi bo'shliqni bartaraf etish maqsadida tashkil etilgan. Bir yil o'tgach, EO Slovakiyaga tarqaldi. Iqtisodiy olimpiada hozirda maktab o'quvchilari uchun juda nufuzli imkoniyat sifatida tanilgan. Musobaqa 14 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, hozirgi

vaqtda loyiha Chexiya ta'lim, yoshlar va sport vazirligi, Chexiya moliya vazirligi va Chexiya milliy banki kabi tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Olimpiada 4 turdan iborat - maktab, mintaqaviy, milliy va xalqaro. Har bir ishtirokchi maktabning eng yaxshi 5 nafar o'quvchisi mintaqaviy turga yo'l oladi, so'ngra har bir mintaqadan g'oliblar milliy turda raqobatlashadi. (Manba: <https://inev.cz/en/projekty/the-economics-olympiad>)

Yaponiyada moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy tanlov 2005 yilda tashkil etilgan: 20 yillik faoliyati davomida u 47 ta mahalliy bank va 7 dan ortiq moliya tashkilotlari ishtirokidagi moliyaviy savodxonlik bo'yicha eng yirik o'quv tadbiriga aylandi, homiyilar ro'yxati va o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashning g'ayrioddiy formatlari bilan e'tibor qozondi. Har yili Tokioda bo'lib o'tadigan finalga 400 ta o'quvchi tashrif buyuradi, ularning ishtiroki bepul va transport xarajatlari qoplanadi. (Manba: https://ecolymp.org/experience/japanese_olympiad)

Rossiya Federatsiyasida har yili moliyaviy savodxonlik, moliya bozori va moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha Butunrossiya olimpiadasi - "Yuqori sinf o'quvchilari uchun Finatlon" Rossiya va MDHning 8-11-sinf o'quvchilari uchun iqtisodiyot, moliya bozorlari va moliyaviy va investitsiya savodxonligini oshirishga qaratigan. Olimpiadaning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning topshiriqlari real iqtisodiyotga yaqin, amaliy xarakterga ega. Ular moliya bozorining dolzarb muammolarini, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni aks ettiradi. Olimpiada g'oliblari va sovrindorlari oliy ta'lim muassasalariga iqtisodiy mutaxassisliklarga kirishda quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladilar: kirish imtihonlarisiz o'qishga kirish imkoniyati, ixtisoslashtirilgan imtihon uchun 100 ball yoki individual yutuqlar uchun qo'shimcha ballar. (Manba: <https://postupi.online/olimpiada/finatlon-dlya-starsheklassnikov>)

Mamlakatimizda ham bu tajriba yangilik emas, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy Banki, O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi hamkorlikda 2021 yilda tashkil etgan moliyaviy savodxonlik bo'yicha olimpiadada maktab o'quvchilari ham ishtirok

etishgan. Lekin hozirgi kunda o'tkazilayotgan bunday musobaqalarning aksariyati oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun bo'lib, maktab o'quvchilari e'tibordan chetda qolishmoqda. Har yarim yoki bir yilda bir marta 5-11 sinf o'quvchilari o'rtasida moliyaviy musobaqa va olimpiadalar tashkil etish ularning o'qish jarayonida to'plagan bilimlarini sinovdan o'tkazishga, o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu jarayonga yuqori moliyaviy tashkilotlarni, oliy ta'lim muassasalarining iqtidorli talabalari va xodimlarini, o'z sohasining yetuk mutaxassislarini jalb qilish, g'olib va sovrindorlarga pul mukofotlari, turli xil sovrinlar va imtiyozlar taqdim etish moliyaviy olimpiadalarda ishtirok etishga qiziqishning ortishiga olib keladi.

O'quvchilarga nazariy bilimlarni o'yin formatida amalda qo'llashga yordam beradigan biznes o'yinlari va moliyaviy simulyatsiyalarni o'tkazish. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda Internet va ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilar hayotida tobora ko'proq o'rin egallamoqda. Internet orqali katta miqdordagi ma'lumotlarni topish imkoniyatining mavjudligi an'anaviy o'qitish usullarining ahamiyatini pasaytiradi. Onlayn texnologiyalar orqali muloqot sinfdoshlar o'rtasidagi real o'zaro aloqani yo'q qiladi. Ko'pgina o'qituvchilar so'nggi yillarda sinfda o'quvchilarning o'qish faolligining sezilarli darajada pasayganini ta'kidlamodalar, shuning uchun o'quv jarayonini faollashtirish muammosi zamonaviy pedagogika uchun dolzarb muammodir. Faqat faol o'quvchi materialni samarali o'zlashtirishi va yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi mumkin. O'quvchilarning o'quv faolligini oshirish zarurati ta'lim texnologiyalarini yanada takomillashtirishga olib keladi. Oxirgi yillarda dars va darsdan tashqari o'qitish jarayonlarida ko'proq interaktiv texnologiyalardan, shu jumladan o'yinlardan foydalanilmoqda. O'yinlarni ta'lim jarayonida qo'llash faol o'qitish usullarining eng muhim turlaridan biridir. Ta'limda o'yinlardan foydalanish motivatsion jihatni oshiradi: o'yin faoliyati ta'lim vositasi sifatida fikr va harakat erkinligi bilan tavsiflanadi, majburiylikni inkor qiladi, shuningdek, o'quvchilarning chuqur shaxsiy, individual faoliyati va shu bilan birga jamoada va jamoa orqali birgalikda o'rganishini ta'minlay oladi.

O'yinni dars jarayonida qo'llanganda o'quvchining darsga jalb qilinishi, mavzuni o'rganishga qiziqishi ortadi, demakki, darsning samarasi oshadi va natijada an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan bilimlarni o'zlashtirish sezilarli darajada o'sadi. Shunday qilib, masalan, materialni taqdim etishning ma'ruza shakli bilan umumta'lim maktab o'quvchilari ma'lumotlarning atigi 20 foizini, o'yin asisida o'qitish usullaridan foydalanganda esa 90% gacha o'zlashtiradilar.

O'yin texnologiyalari-bu nafaqat o'quvchilarning ijodiy izlanish darajasidagi ishlarini, balki boshlang'ich maktab o'quvchilarining moliyaviy savodxonligini o'rgatish uchun kundalik qadamlarni ham qiziqarli va quvnoq qilish imkonini beradigan noyob ta'lim shakllaridan biridir. O'yinning yana bir ijobiy tomoni shundaki, u yangi vaziyatda bilimlardan foydalanishga yordam beradi, shu bilan o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan material o'ziga xos amaliyotdan o'tadi, o'quv jarayoniga xilma-xillik va qiziqish uyg'otadi.

Darslarning o'yin shakli darslarda o'quvchilarni o'quv faoliyatini rag'batlantirish va faollashtirish vositasi sifatida o'yin texnikasi va vaziyatlaridan, o'yin ssenariysi va vositalaridan foydalangan holda yaratiladi. Moliyaviy o'yinlardan Iqtisodiy bilim asoslari, Tadbirkorlik asoslari darslarida va shunigdek, boshqa fanlarning moliya bilan bog'liq mavzudagi darslarida ham foydalanish mumkin. Darslarni o'tkazishning o'yin shakli o'quvchilarga o'quv jarayonida o'z bilimlarini kengaytirish va mustahkamlashga imkon beradi; o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakllantirishga, o'z nazariy bilimini amaliy tajribada qo'llashga, iqtisodiy tanlov sharoitida oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirishga hissa qo'shadi. Moliyaviy o'yinlarni yaratishda o'quvchilarning yosh xususiyati, o'rganadigan fanlar doirasi va moliyaviy bilimlar bilan qamrab olinganlik darajasi inobatga olinishi kerak bo'ladi.

Moliyaviy o'yin va simulyatsiyalarni nafaqat dars jarayonlarida, balki darsdan tashqari vaqtlarda va o'quvchilarning yozgi oromgohlarda dam olish vaqtlarida ham qo'llash mumkin. Maktabda bunday o'yinlarni 5-11 sinf o'quvchilari o'rtasida har oyda o'tkazish mumkin. Hozirgi kunda moliyaviy o'yinlarning har xil turlari mavjud. Stol o'yinlari, onlayn o'ynaladigan moliyaviy simulyatorlar shular

jumlasidandir. 1934 yilda Charlz Derrou yaratilgan mashhur Monopoliya o'yini stol o'yini bo'lib, u orqali biznes va moliyaviy boshqaruvni simulyatsiya qilish mumkin. O'yin natijasida moliyaviy mablag'larni to'g'ri boshqarish, saqlash va ko'paytirish, biznes yuritish va investitsiya ko'nikmalarini rivojlantirish, pul ishlashning yangi usullarini o'rganish, mantiqiy fikrlash va xotirani masq qildirish, rejalashtirish va etakchilik qobiliyatini mustahkamlash mumkin.

- Pul oqimi o'yini: R.Kiyosaki tomonidan yaratilgan ushbu o'yinning maqsadi o'z pul mablag'larini boshqarishni o'rgatishdan iborat. Uni o'ynash orqali oqilona investitsiya strategiyasini ishlab chiqish, pul oqimini boshqarish va nazorat qilish, bir necha burilishlarda "kalamush poygasi" dan chiqish va pulni o'zi uchun ishlashga, professional investor kabi o'ylashga, moliyaviy imkoniyatlarni ko'rishga undash ko'nikmalari shakllanadi.

Moliyaviy futbol onlayn o'yini VISA kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Moliyaviy futbol - bu o'yinchilar bir nechta savollarga javob variantlarini tanlash orqali moliyaviy savollarga javob beradigan o'yin. O'yin o'yinchining shaxsiy moliyani boshqarish bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazadi, chunki u gol urish uchun raqib darvozasi tomon yaqinlashib boradi. O'yinni <https://www.financialfootball.com> saytida onlayn tarzda o'ynasa bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bozori o'yini – onlayn simulyator o'yin bo'lib, o'quvchilarga matematika, ingliz tili, iqtisod, ijtimoiy fanlar va boshqa fanlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni taqdim etish bilan birga sarmoya kiritish haqida asosiy tushunchalarni shakllantirishga yordam beradi. Uni <https://www.stockmarketgame.org> sayti orqali o'ynash mumkin.

Mamlakatimizda moliyaviy o'yinlar zamonaviy ijtimoiy-gumanitar ta'limning dolzarb yo'nalishi va o'quvchilar o'rtasida moliyaviy savodxonlikni shakllantirish bo'yicha darslarni tashkil etishning samarali vositasi ekanligini tushungan holda moliyaviy o'yinlar yaratishga va ular orqali maktab o'quvchilari moliyaviy savodxonligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumki, maktablarimizda doimiy ravishda fan haftaliklari o'tkazib boriladi. Har bir hafta biror bir fanga bag'ishlangan bo'lib, hafta davomida shu fanga oid

tadbirlar, tanlovlar o'tkaziladi. Mana shunday haftaliklardan birini moliyaviy savodxonlik haftaligi qilib, unda moliya sohasida turli tanlovlar, o'yinlar va tadbirlar tashkil etish ham moliyaviy savodxonlik va unga bo'lgan qiziqishni oshirishning yana bir samarali vositasidir. Jahon tajribasida har yili mart oyining oxirida Global Pul haftaligi (Global Money Week)ni o'tkazish odat tusiga kirgan. Ushbu haftalik IHTTning xalqaro moliyaviy ta'lim tarmog'i (OECD/IMHE) tomonidan tashkil etilgan, dunyoning 175 ga yaqin davlatlarida o'tkaziladi, shu jumladan, O'zbekistonda 2015 yildan boshlab o'tkazib kelinmoqda. 2024 yil 18-24 martda tashkil etilgan bu yilgi haftalikning rasmiy mavzusi "Pulingizni himoya qiling, kelajagingizni ta'minlang" bo'lib, pulni xavfsiz boshqarish va shaxsiy moliya masalalariga mas'uliyatli va ongli ravishda yondashish, moliya sektoridagi potentsial risklarni anglash va peshona teri bilan ishlab topilgan pulni himoya qilish muhimligini o'rgatishga bag'ishlandi. Bunday risklarga moliyaviy firibgarliklar, jumladan, fishing, pul yuvish va onlayn xarid bilan bog'liq firibgarliklar, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash kabi ma'lumotlar maxfiyligi bilan bog'liq risklar kiradi. Yoshlar, ayniqsa, moliyaviy savodxonligi va tajribasi cheklanganligi sababli moliyaviy firibgarliklar qurboni bo'lishadi. O'zbekistonda haftalikning milliy koordinatori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisoblanib, haftalikda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, "O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi" AJ, 21ta tijorat banklari, 428 ta umumta'lim maktablari va 88 ta oliy o'quv yurtlari ishtirok etishdi, 41 606 ta o'quvchi va talaba yoshlar qamrab olindi (Manba: <https://globalmoneyweek.org/countries/205-uzbekistan.html>). Ana shunday haftaliklar qamrovini kengaytirish, umumdavlat miqyosida moliyaviy savodxonlik haftaligi va yoki oyligini tashkil etish yoshlarimizni moliyaviy bilimlarini oshirishda muhim qadam bo'lardi.

Yuqorida sanab o'tilgan tadbirlar o'quvchi yoshlarga nafaqat qo'shimcha bilim olishga, balki tanqidiy fikrlash, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati, byudjetni rejalashtirish va moliyaviy risklarni tushunish kabi muhim

ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarga moliyaviy savodxonlikning real hayotda amaliy qo'llanilishini ko'rish va ularni kelajakdagi moliyaviy qiyinchiliklarga tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktab o'quvchilari o'rtasida moliyaviy savodxonlikni oshirish murakkab va muhim jarayon bo'lib, uni tashkil etish o'quvchilarning yoshi, sinfi, o'quv yuklamasi xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bosqichma- bosqich boshqa fanlar bilan bog'liq holda amalga oshirilishi lozim. Sinflar kesimida o'quv yuklamasini og'irlashtirmaslik maqsadida amalda o'tilayotgan fanlarga moliyaviy savodxonlik elementlarini qo'shib borish hamda sinfdan tashqari qiziqarli moliyaviy tadbirlar tashkil etish bilan ham yaxshi samaraga erishish mumkin.